
Farg'ona viloyati avtomobil' yo'llari hududiy bosh boshqarmasining bildirishi

“Farg'ona haqiqati” gazetasining 2020 yil 7 noyabrdagi 87-sonida “Avtobus bekatlari qay ahvolda? yoxud “Aqlli bekat” qachon bo'ladi?” sarlavhasi ostida chop etilgan maqola bo'yicha quyidagilar ma'lum qilinadi:

Farg'ona viloyati avtomobil' yo'llari hududiy bosh boshqarmasi tasarrufida bo'lgan tuman va shahar yo'l korxonalarini tomonidan viloyatimiz hududida joylashgan jami 4031 km umumfoydalanishdagi avtomobil' yo'llariga xizmat ko'rsatiladi. Ushbu avtomobil' yo'llarida jami 1395 ta avtobekatlari mavjud bo'lib, shundan 48 tasi yangi, 14 tasi qayta qurilgan va 259 tasi joriy ta'mirlangan.

Viloyat hududida joylashgan umumfoydalanuvdagi avtomobil' yo'llarida mavjud bo'lgan avtobekatlarga ham yo'llarning joriy ta'mirlash va saqlash uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan ta'mirlanib, yangi va qayta qurilayotgan ob'ektlarda esa zamon talablari darajasidagi yangi avtobekatlari qurilmoqda.

Maqolada keltirilgan Farg'ona shahar Ahmad Farg'oniy ko'chasidagi avtobekatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 15 noyabrdagi PQ-1641-son qaroriga asosan pudratchi korxonasi tomonidan mazkur yo'l shaharsozlik normativ qoidalariga muvofiq tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha qayta qurishda yangi avtobekatlari ham qurilgan hamda belgilangan tartibda “Avtomobil' yo'llari to'g'risida”gi Qonunga muvofiq, tegishliligi bo'yicha yuridik shaxsga kelgusida ushbu yo'lga xizmat ko'rsatish uchun Farg'ona shahar hokimligining Obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufiga o'tkazilgan.

Shuningdek, avtobekatlari borku lekin avtobuslari qatnamasligi yoki avtobekatlari yo'lovchilari uchun qulaylik yaratish jumladan, harakat jadvallari, yo'nalishlari nomi kabi tablolarni o'rnatishni O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi “Shahar yo'lovchilari transporti to'g'risida”gi qonunining 19-moddasiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Shundan kelib chiqib, Farg'ona shahar hokimligi bilan hamkorlikda shahar hududidagi avtobekatlarni ta'mirlash va jihozlash bo'yicha tegishli choralar ko'riladi.

2020-11-20 16:19:29